

Qodirov Shuxrat Xuddiyevich

Buxoro davlat Pedagogika Instituti II-bosqich magistranti.

Nurullayev F.G.

*Buxoro davlat Pedagogika Instituti Musiqa va tasviriy san‘at kafedrası, p.f.f.d (PhD)
professor.*

Annotatsiya: *Maqolada ilk uyg‘onish davrida san‘at taraqqiyoti va sharq mutafakkirlarining musiqaga oid qarashlari haqida fikr yuritilgan. Musiqiy meros tizimida Sharq mutafakkirlarining qarashlari o‘ziga xos ilmiy tizimni tashkil etadi. Forobiydan professor Fitratgacha bo‘lgan jarayonda musiqa nazariyasi asoslari san‘at va adabiyot bilan uyg‘unlikda ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *g‘oyaviy- badiiy, tarbiyaviy, serqirrali, teranlik, mantiqiy, mutafakkir, san‘at, musiqa, sharq, davr.*

Аннотация: *В статье рассматривается развитие искусства и взглядов восточных мыслителей на музыку в эпоху раннего Возрождения. В системе музыкального наследия взгляды восточных мыслителей образуют уникальную научную систему. На протяжении всей истории – от Фараби до профессора Фитрата – основы музыкальной теории развивались в гармонии с искусством и литературой.*

Ключевые слова: *идейно-художественный, образовательный, разнообразный, глубокий, логичный, мыслитель, искусство, музыка, восток, эпоха.*

Jahon pedagogikasida Sharq mutafakkirlarining san‘at va adabiyot haqidagi ilmiy qarashlarini ilmiy tadqiq etish yo‘lida qator ishlanishlar olib borilgan. Xususan, ularning musiqaga oid bildirgan fikrlari, yaratgan maxsus asarlarini aniqlash, ularni nashr etish, mazkur san‘at turining rivojlanishiga xos xususiyatlarni aniqlash yo‘nalishidagi izlanishlarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon pedagogika ilmida Sharq qomusiy olimlarining ijodiy-musiqiy merosini yaxlit o‘rganish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, o‘zbek xalqining dunyoqarashi, urf-odat va an‘analarini o‘zida aks ettiruvchi musiqa san‘ati, uning ko‘p asrlik tarixi va ma‘naviyatni yuksaltirishdagi mavqeyi, musiqiy merosning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash yuzasidan ilmiy asoslangan konsepsiyalarni ishlab chiqishga alohida diqqat qaratilmoqda.

O`zbek xalqi tarixida yangi davr ochgan O`zbekiston Respublikasi mustaqilligi milliy mafkura, ilm-fan, madaniyat va ma`naviyat sohalarini yanada rivojlantirish vazifalarini qo`ydi. Bunday muhim vazifalar o`zbek xalqi madaniyati, fani, adabiyoti va san`ati tarixini tubdan o`rganish, undan bugungi kun uchun amaliy xulosalar chiqara bilish asosidagina to`la bajarilishi mumkin. Musiqa ma`naviyatning ajralmas qismi ekanligini hisobga olsak, yuqoridagi masalalar, o`z navbatida, musiqa merosini o`rganish, tadqiq etish dolzarb masaladir. Musiqiy meros tizimida Sharq mutafakkirlarining qarashlari o`ziga xos ilmiy tizimni tashkil etadi. Forobiydan professor Fitratgacha bo`lgan jarayonda musiqa nazariyasi asoslari san`at va adabiyot bilan uyg`unlikda ishlab chiqilgan. Binobarin: “Mamlakatimizda barcha soha tarmoqlar qatori madaniyat va san`at, adabiyot, ommaviy axborot vositalari rivojiga katta e`tibor berilmoqda. Ayniqsa, keyingi paytda bu soha ravnaqini yangi bosqichga ko`tarish bo`yicha ulkan ishlar qilinmoqda”¹. Haqiqatan, Sharq mutafakkirlarining musiqaga oid qarashlari o`sb kelayotgan yosh avlodning ma`naviy kamolotida o`ziga xos dastur vazifasini o`taydi. Bu borada Sharq ilm-fani rivojiga katta hissa qo`shgan Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Zokirjon Furqat, Abdurauf Fitrat singari qomusiy ijodkorlarning musiqaga oid fikr-qarashlarini yaxlit tizim sifatida tekshirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud.

Sharq mumtoz musiqasining nazariy asoslari – mumtoz musiqa va uning tarqalishi bilan bogliq bolgan kasb-hunar azaldan amaliy va nazariy bilimlarni oz ichiga oluvchi yagona ilm hisoblangan. Sharq klassik musiqasining nazariy masalalari Forobiy, Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marogiy, Abdurahmon Jomiy, Najmiddin Kavkabiy, Darvesh Ali kabi ulkan olimlar tomonidan atroflicha organilgan. Ularning asarlari musiqa ilmining poydeborini tashkil qiladi. Risolalarda mumtoz musiqaning ijtimoiy hayotdagi orni, tarixiy shakllari, ijrochilik masalalari hamda ular negizidaqi kuy va usul tuzilmalarining tarkib topish qonun-qoidalari vatafsil yoritilgan. Nomi zikr etilgan musiqashunoslarda har birining oziga xos tomonlari bo`lishi bilan bir qatorda umumiy qarashlar, vorisiylik rishtalari, izchil an`analar ham yaqqol sezilib turadi. Ular ijodi tabiiy ravishda bir-birini toldirib, umuman, mumtoz musiqa asoslariga nisvatan yagona ilmiy an`ana bolib gavidalanadi Sharq ilmi serqirraligi va keng qamrovga ega ekanligi bilan alohida e`tiborni tortadi. Diniy-dunyoviy fanlar qatorida musiqa san`ati ham Sharqda taraqqiy etgan. Buni juda ko`p badiiy va musiqaga bag`ishlab yozilgan maxsus asarlar tasdiqlab turadi. Abu Nasr Forobiydan tortib professor Fitratgacha bo`lgan juda katta davrdagi manbalar buni tasdiqlab turadi. Shu manbalar orasida Alisher Navoiyning “Majolis un nafois”, Boburning “Boburnoma”, Fitratning “Adabiyot

¹ Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san`at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma`naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. //Xalq so`zi gazetasi. – Toshkent, 2017 yil. 4 avgust.

qoidalari”, “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi”, A.Sa’diyning “Amaliy va nazariy adabiyot darslari” asarlari alohida ajralib turadi.

Qomusiy olim Abu Nasr Forobiy musiqaga alohida e’tibor qaratgan. Uning “Musiqaga haqida katta kitob”, “Musiqaga uyg‘unligi haqida” degan asarlari arab tilida yozilgan. Har ikki asar ham rus tiliga tarjima qilingan. Xususan, “Musiqaga uyg‘unligi haqida” kitobi birinchi marta ilmiy muomalaga olib kirilgan.

Ulug‘ mutafakkir Abu Nasr Forobiy qomusiy olim sifatida Sharq ijtimoiy-estetik tafakkuri taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. U bir necha fanlar qatorida musiqaga ham katta e’tibor qaratdi va uning inson hayotidagi o‘rnini ko‘rsatib berdi. Forobiyning musiqiy merosi rus pedagogikasi va musiqashunosligida alohida o‘rganilgan. Xususan, uning fan olamida mashhur “Musiqaga haqida katta kitob” asari olimi Sayda Diasovna Daukeyevaning “Konsepsiya muzikalnoy nauki Abu Nasra Muxammada al-Farabi v traktate “Bolshaya kniga muziki”² nomli nomzodlik dissertatsiyasida keng tahlil va talqin etilgan. “Katta musiqaga kitobi”da Forobiy musiqaga fanining tamoyillari va metodologiyasini ishlab chiqqan. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, hozirga qadar Forobiyning musiqiy merosi o‘zbek tiliga deyarli tarjima qilinmagan. Bu asarlar, asosan, arab tilidan rus tiliga o‘girilganligi ma’lum. S.Daukeyeva tadqiqotida esa arab tilidagi asliy matn va rus tilidagi tarjimaga tayangan. Xususan, olimi Forobiy davrida qo‘llanilgan musiqaga terminlarini arabchasi bilan yonma-yon bergan. Olimaning fikricha, qadimdan kelgan an’anaga ko‘ra musiqaga Forobiyga tegishlidir³. Forobiy musiqani matematik fanlar qatoriga kiritadi: “quyidagi matematik fanlar: arifmetika, geometriya, astronomiya, musiqaga, statika va mexanika”. Ma’lumki, matematika fanlarida chiziqlar, tekisliklar, geometrik jismlar, raqamlar, turli shakllar, formulalar ishlatiladi. Shu jihatdan qaraganda, Forobiyning musiqani ham matematik fanlar qatoriga kiritishi mantiqan to‘g‘ridir. Mutafakkirning fikricha, musiqaga matematik fan sifatida, uni ushbu bo‘limga kiritish uchun asos bo‘ladi. Chunki unda ham elementlar – tovushlar, ritmik birliklar (davomiylik), raqamlar, miqdor kabilar muhim o‘rin tutadi. Haqiqatan, musiqada ohang, ritmning uyg‘unligi, tekisligi aynan raqamlar va uning miqdori bilan bog‘liq. Qolaversa, bu fanda musiqiy lahndan tashqari aqlning, ratsional fikrning ham o‘rni borki, busiz qalbga yaiqn, his-tafakkurimizga ta’sir qiladigan musiqaga, qo‘shiqni yaratib bo‘lmaydi. Shu jihatdan, Forobiyning fikrlari bugungi musiqashunoslik uchun ahamiyatli. Dunyoviy fanlar qorishiq yashagan qadimgi davrlarda Forobiy ularni xususiyatlariga qarab klassifikatsiya qildi va shular qatorida musiqaga katta e’tibor qaratdi. Yana bir jihatni alohida qayd etish kerak, “hisoblash” matematik fanlardagi kabi musiqaga ham tegishli.

² Даукеева Сайда Диасовна. Концепция музыкальной науки Абу Насра Мухаммада ал-Фараби в трактате "Большая книга музыки". Дисс. канд. наук. искусствоведение. –Москва, 2000. –С. 54.

³ Даукеева Сайда Диасовна. Концепция музыкальной науки Абу Насра Мухаммада ал-Фараби в трактате "Большая книга музыки". Дисс. канд. наук. искусствоведение. –Москва, 2000. –С. 54.

Chunki notalar soni ohang uchun muhim asos vazifasini o'taydi. Forobiy, musiqa nazariyasi va musiqiy amaliyot degan terminlarni qo'llaydi. Uning fikricha, musiqa amaliyoti "sezgi bilan idrok etilgan obyekt"dir. Qolaversa, musiqiy amaliyot musiqa asboblari bilan ish ko'radi. Olim musiqa san'atini tarozi' (mantiq) ilmi bilan ham bog'lab talqin etadi. Musiqada his etish va eshitish idroki muhimdir.

Forobiy "sabab zanjiri" nazariyasini ilgari suradi. Uning fikricha, musiqa matematikaning bir qismi, matematika pedagogika fanlarining bir qismi bo'lsa, ikkinchisi nazariy falsafaga tegishli bo'lib, u falsafaning ikki tarmog'idan biri (metafizika) – keng qamrovli borliq haqidagi fanlar bilan bog'liq. Forobiy san'atni inson faoliyatining bir turi sifatida tavsiflaydi. Haqiqatan ham, insonning ma'naviy hayotini san'atsiz, musiqasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ohanglar ijrochisi va ijodkori haqidagi g'oyani shakllantirish, uni muayyan shaklda amalga oshirish tugallangan musiqiy ish va uning ijrosi, nazariy-musiqiy kompozitsiyani ko'rib chiqish kabilarni Forobiy bilish jarayoni deb tushunadi. Ijro shakli (aynan) shaklga tegishli ekanligiga kelsak, kompozitsiya, bu ijrochining o'zining shaklini tayyorlaganligidan ko'rinadi, tasavvur va ijro organining shakli, shundan kelib chiqadiki, bu tufayli yaratilgan kuy tinglovchi tomonidan idrok qilinadi va eshitiladigan qilishda taqlid qiladi⁴ Ko'rinadiki, mutafakkir olim musiqaning yaralish jarayonini ham ilmiy asoslab beradi: ohang ijrochisi, ijodkor, g'oya, muayyan shakl, ijro. Shu bilan birga yaratilgan kuy, avvalo, tinglovchi tomonidan idrok qilinadi va eshitiladi. Shundan keyingina tinglovchi uni xirgoyi qilishi, Forobiy ta'biri bilan aytganda, "taqlid qilishi" mumkin. S.Daukeyevaning yozishicha, Forobiy musiqa san'ati shakllarini mantiqiy jihatdan tizimlashtirdi. U rassomlik va musiqa san'atini qiyoslaydi. Rassom badiiy obrazning yaratilgan kompozitsiyasi g'oyasidan kelib chiqadi. Ijro shakli (aynan) shaklga tegishli ekanligiga kelsak, kompozitsiya, bu ijrochining o'zining shaklini tayyorlaganligidan ko'rinadi⁵. Abu Nasr Forobiyning "Musiqqa haqida katta kitob" asari arab tilida bitilgan. Bu asar yangi asr boshlarida rus tiliga o'girilgan. Mazkur asarni rus olimasi S.D. Daukeyeva maxsus o'rgangan. U dissertatsiyasi so'ngida Forobiyning "Musiqqa va she'riyat risolalari"iga sharh yozgan va ilovalar tarzida asarning rus tilidagi variantini keltirgan. Biz ham shu manbaga tayangan holda mutafakkir olimning musiqiy qarashlarini tadqiq etishga harakat qildik. Al-Forobiy musiqa nazariyasining asosiy bo'limlari ketma-ketligida tavsiflaydi: rejim, ritm va nazariya

⁴ Al-Farobiy 1967, 61-62. Қаранг: Даукеева Сайда Диасовна. Концепция музыкальной науки Абу Насра Мухаммада ал-Фараби в трактате "Большая книга музыки". Дисс. канд. наук. искусствоведение. –Москва, 2000.

⁵ Даукеева Сайда Диасовна. Концепция музыкальной науки Абу Насра Мухаммада ал-Фараби в трактате "Большая книга музыки". Дисс. канд. наук. искусствоведение. –Москва, 2000. –С. 70.

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажегимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт, санъат ва маданият яшаса, миллат ва халқ, бутун инсоният безавол яшайди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари” мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига йўллаган табриги. [www. xabar.uz](http://www.xabar.uz)
3. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. //Xalq so'zi gazetasi. – Toshkent, 2017 yil. 4 avgust.
4. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик. 13- том. Мажолис ун-нафоис. –Тошкент: Фан, 1997. –300 б.
5. Арипова Гулноза. Муסיқага оид терминлар ривожиди Шарқ мутафаккирларининг ўрни// Хорижий филология. –Тошкент.
6. Акбаров И. Муסיқа луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. –384 б.
7. Воҳидова Н. Шарқ мутафаккирларининг таълимий-ахлоқий қарашлар// Замонавий таълим / Современное образование 2018,
8. Даукеева Сайда Диасовна. Концепция музыкальной науки Абу Насра Мухаммада ал-Фараби в трактате "Большая книга музыки". Дисс. канд. наук. искусствоведение. –Москва, 2000.
9. Джураев А.А.«Музыкальный трактат» Абдурахмана Джами: возможности музыкального инструмента уд 2022 <https://cyberleninka.ru/article/n/muzykalnyu-traktat-abdurahmana-dzhami-vozmozhnosti-muzykalnogo-instrumenta-ud>
10. Zahiriddin M.B. Boburnoma. – Toshkent: Fanlar Akademiyasi, 1960. – 504 b.
11. Nurullaev F.G. The role of folklore in the raising of children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020 Part III ISSN 2056-5852.
12. Нуруллаев Ф.Г., Композиционный и исполнительский процесс в музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 576-581.
13. Нуруллаев Ф.Г. Импровизаторское творчество в XX веке по сфере музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 582-587.
14. Nurullayev F.G. [FORMATION OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN ON THE EXAMPLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS](#). Euro-Asia Conferences 1 (1), 34-36.

15. Nurullayev F.G. [METHODOLOGICAL REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF BUKHARA FOLK SONGS IN MUSIC EDUCATION](#). Web of Scientist: International Scientific Research Journal 1 (01), 83-88.
16. Нуруллаев Ф.Г. Обряды и обычи связанные с рождением и воспитанием ребенка. Музыкальное искусство и образование: традиции и инновации: сборник материалов международного научного конференции. Бухара, 2019. 317– 320 стр.
17. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Музыкально-историческое наследие центральной Азии (психологический настрой армии Темура). Психология XXI столетия, 18-20 марта 2020 года С. 115-118.
18. Нуруллаев Ф.Г. Мусиқа таълимида Бухоро фольклор кўшиқларига кўйиладиган методик талаблар. Pedagogik mahorat, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2020, 3-son. Вухоро. Б.175-180.
19. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся. Научно– методический журнал «Проблемы педагогики» №3(48). Москва 2020. С.15-17.
20. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Формирование эстетического воспитания детей на примере Бухарских фольклорных песен. «MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS» collection of scientific works of the international scientific conference Issue 4(260 Warsaw, Poland 2020. P. 139-141.
21. Nurullayev F.G., Madrimov B.K., Rajabov T.I. Teaching Bukhara Children Folk Songs in Music Lessons as an Actual Problem. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol.24, Issue 04, 2020 P. 6049.
22. Нуруллаев Ф.Г., Случайный выбор качественных характеристик материала по музыки или порядок его изложения в процессе создания музыки или исполнения опуса//«SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal. ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 588-593.
23. Нуруллаев Ф.Г. Мусиқа таълимида Бухоро фольклор кўшиқларини ўргатиш жараёнини лойиҳалаш. Бухоро мусиқа фольклорининг тарихий-назарий ва амалий масалалари. Республика илмий-назарий анжуман материаллари. 2020 йил, 6 ноябрь. Бухоро, 2020- Б. 107-111.
24. Нуруллаев Ф.Г. Из истории смычковых инструментов у мастеров Аматти Николо, Гварнери и Страдивари. Материалы международного научно-творческого форума. Часть 1- Челябинск, 2016.-С.158-159
25. Нуруллаев Ф.Г. Особенности и условия развития творческих музыкальных способностей детей. Вестник интергративной психологии. Журнал для психологов. г. Ярославль, Выпуск №17, 2018. – С.125-128.

26. Nurullayeva N.G., Nurullaeva N.K., Nurullaev B.G. Role and significance of folklor music in the upbringing of children of preschool age. *Academicia An International Multidisciplinary Research Journal*. Vol.10, Issue 10, October 2020.
27. Nurullayev F.G. Узлуксиз таълим тизимида Бухоро фольклор кўшиқларини ўргатишнинг ўрни ва аҳамияти// *О'zbekiston Milliy Universiteti xabarлари, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2021-yil 6-son.- Toshkent*. В.177-186.
28. Нуруллаев Ф.Г., Музыкальный процесс в западной музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» *Scientific Journal* ISSN: 2181-1601, 2021. - pp.570-575.
29. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся// *Научно – методический журнал «Проблемы педагогики»*. №3 (48). - Москва 2020.- С.15-17.
30. Nurullayev F.G The Role and Significance of Folk Music in Raising Children.*European Journal of Innovation in Nonformal Education(EJINE)* Volume 2| Issue 5| ISSN:2795-8612 **Accepted** 14 May2022.